

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH
MARKAZI**

«KELISHILDI»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi
huddudiy xay’at raisi

M.T. Xakimova



03 2025 y.

«TASDIQLAYMAN»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi
direktori

L.X. Musadjanova



03 2025 y.

Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash

PEDIATRIYADA HAMSHIRALIK ISHI

(sikli bo‘yicha malaka oshirish guruhlari uchun)

O‘QUV DASTURI

(144-kredit)

Toshkent – 2025 yil

TUZUVCHILAR:

L.X..Musadjanova Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlar malakasini oshirish va ixtisoslashtirish markazi direktori professor,t.f.d.

M.U.Muxsimova Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlar malakasini oshirish va ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi.

TAQRIZCHILAR:

Z.Z.Imamova RO'TFXMO va IM o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

N.A.Usmanova Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti klinikasi bosh shifokor muovini

O'quv dasturi Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 4 03 2025.y.

bayonnoma № 2/1

Pedagogik kengash raisi



L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi,muhokama qilindi,tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 5 03 2025.y.

bayonnoma № 2

1. Kirish

O‘zbekiston Respublikasida diplomdan keyingi o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4310-son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha meyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saklash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “O‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan. O‘quv dasturni ishlab chiqishda JSST va YUNISEF tomonidan tavsiya etilgan BTSYO muassasalarida onalar va bolalarga universal-progressiv modeli bo‘yicha xizmat ko‘rsatish, Milliy klinik protokollar bo‘yicha tavsiyalardan foydalanilgan. O‘quv dastur modul tizimi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘quv fanning mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e‘tiborga olingan. O‘quv dasturi “Pediatriyada hamshiralik ishi” yo‘nalishining o‘quv rejasi asosida tayyorlangan bo‘lib, hamshiralarni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo‘ljallangan.

Dasturda fanlar modullarga ajratilgan bo‘lib, kasbiy rivojlanish moduli fanlar hamda, mutaxassislik fanlar bo‘yicha ta’lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma’naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm-fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma’lumotlar kiritilib, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviylikini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta’minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan.

1.1. Maqsad:

O‘qish natijasida “Pediatriyada hamshiralik ishi” bo‘yicha o‘rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash, kasbiy darajasini oshirish va yangilash asosida, bolalar o‘smirlar salomatligini saqlash, tibbiy yordam ko‘rsatish, og‘ir yotgan bolalarga parvarishni tashkil qilish, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini chuqurlashtirish va yangilash. O‘rta tibbiyot xodimlarni har tomonlama yetuk, mutaxassisliklari bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga erishish, shu bilan bir qatorda ularga hamshiralik ishi mohiyati, uning sog‘liqni saqlash tizimidagi o‘ziga

xosligi, normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, bolalarga sifatli hamshiralik yordamini ko'rsatish, bemor bola hayotiga havf soluvchi holatlarda shoshilinch yordam ko'rsatish, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish va yangilash.

1.2. Vazifalar:

- umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va davolash profilaktika muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashhishlash va davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish;
- amaliyotda sog'liqni saqlash bo'yicha asosiy qonunlarni, amaldagi direktiv hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay bilishni o'rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar, tibbiyot sohasidagi yangiliklar, va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida amaliy ko'nikmalarini shakllantirish;
- aholi salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlash, tibbiy yordamga muxtoj bemorlarni zamonaviy apparaturalarda tekshirishga tayyorlash, bolalar xayotiga xavf soluvchi holatlarni kamaytirish, tibbiy yordam ko'rsatish chora tadbirlari, hozirgi kunda qo'llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalar to'g'risida ma'lumot berish;
- aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish orqali ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olishga o'rgatish;
- Milliy klinik protokollar asosida amaliy ko'nikmalarni qo'llash, ular asosida ishlash ko'nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;
- aholi o'rtasida to'g'ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- bolalar orasida ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olish, dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirishni takomillashtirish;
- hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko'nikmasini rivojlantirish;
- ona sutining ahamiyati, sog'lom va patologiya bilan tug'ilgan chaqaloqlarni parvarishlash, 6 oygacha bo'lgan bolalarning istisnosiz ko'krak suti bilan emizishning muammolarini aniqlash;
- 6 oydan katta bo'lgan bolalarning qo'shimcha ovqatlantirish va hamshiralik parvarishini shakllantirish;
- bolalarda jismoniy, ruhiy rivojlanish monitoringini otkazish muammolarini aniqlash va hamshiralik parvarishini uyushtirish;
- bolalar hayotiga xavf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirish;
- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarini tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini yangilash.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O'quv dasturi davolash profilaktika muassasalari pediatriya bo'limlarida faoliyat olib borayotgan hamshiralarning malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bulgan somatika bo'limlarida ishlovchi tibbiyot hamshiralari uchun mo'ljallangan.

1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, notiqlik san'atining asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;
- hamshiraning huquqiy meyorlarini, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, bolalarning yoshiga nisbatan xususiyatlarini bilishi;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini amalga oshirish;
- bolalarni jismoniy, ijtimoiy-ruhiy rivojlanishi va antropometriyaning ahamiyati, hayotiy muxim ko'rsatkichlarini aniqlashni o'rganish;
- chaqaloqni parvarishlash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- chaqaloqni parvarishlash bo'yicha onalarga amaliy yordam berish;
- 6 oydan katta bo'lgan bolalarning qo'shimcha ovqatlantirish;
- bolalar organizmining yoshiga nisbatan rivojlanishining xususiyatlarini o'rganish;
- bolalar kasalliklarni aniqlashda zamonaviy tekshirish usullarini qo'llashda ishtirok etish;
- turli kasalliklar bo'yicha hamshiralik parvarishi rejalarini tuzish va amalga oshirish;
- parhez stollar tamoyillariga amal qilish;
- o'z kasbiy salohiyati doirasida sanitar oqartuv, sanitar-gigiyenik, profilaktik, reabilitatsion, diagnostik va reanimatsion tadbirlarni, vrach ko'rsatmalarini amalga oshirish;
- shoshilinch holatlarda bemorlar xolatini baholash, asosiy simptomlarini ajratish, og'ir va terminal xolatlarda, jarohatlarda, zaxarlanishlarda yurak-o'pka reanimatsiyasini o'tkazish, shifokorgacha tez tibbiy yordam choralari amalga oshirish;
- immunoprofilaktikaning mazmuni, maqsadi va turlarini bilishi va bolada emlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni bartaraf etishi.

1.5. Dasturning dolzarbligi: O'quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralari qo'llash, "Sog'lom avlod", "Ona va bola" Davlat dasturining asosiy yo'nalishlari, shuningdek tibbiyot huquqi bo'yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilm-fan yutiqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

1.7. O‘qish shakli:

- kunduzgi – o‘qish ishdan ajralgan holda;
- on/offline, masofaviy / a’nanaviy o‘qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda.

1.8. Mashg‘ulotlarni o‘tish tartibi: Mashg‘ulotlar “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi № 160 buyrug‘i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Mashg‘ulotlar 9⁰⁰ da boshlanib, 13⁴⁰ da tamom bo‘ladi. Tushlik – 30 daqiqa.

1.9. Malaka oshirishdan so‘ng: o‘quv kursni to‘liq o‘zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga “Pediatriyada hamshiralik ishi” bo‘yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA’LIM NATIJALARI

2.1.Rejalashtirilayotgan ta’lim natijalaridan so‘ng

takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo‘lgan kasbiy kompetensiyalar:

- o‘rta tibbiyot xodimining fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- o‘z-o‘zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to‘g‘ri qarorlarni qabul qilish;
- ona – bolalar sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash doirasida, aholi orasida tibbiy madaniyat, sog‘lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ‘ibot tadbirlarni olib borish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini tadbiq etish;
- bolalalar kasalliklarini aniqlashda qo‘llaniladigan zamonaviy tibbiy tekshirish usullarini o‘zlashtirish;
- aholi o‘rtasida to‘g‘ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash, o‘sib kelayotgan avlodni sog‘lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- aholi o‘rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, ko‘p tarqalgan kasalliklarni oldini olish, dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirishni takomillashtirish;
- hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- ona sutining ahamiyati, sog‘lom va kasal chaqaloqlarni parvarishlash borasidagi bilim va ko‘nikmalarini yangilash;
- antropometrik o‘lchov, tekshiruv ko‘nikmalarini shakllantirish va olingan natijalarni tahlil qilish;
- tug‘ma va irsiy kasalliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish (skrining)ko‘nikmasi mustahkamlanadi;
- kasallikni erta va yashirin turlarini, havf omillarini aniqlash uchun zamonaviy birlamchi, ikkilamchi profilaktik ishlarni amalga oshirish;
- davolash-profilaktika chora-tadbirlarini rejalashtirish va o‘tkazish;
- kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarda yordam ko‘rsatish;

- kasalliklar asoratlarini oldini olish, bolalar salomatligini saqlash hamda, uni tiklashda immunoprofilaktikaning o‘rnini, dolzarbligini ko‘rsatib berish;
- onalik va bolalikni muhofaza qilish muassasalarida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish va ko‘satkichlarni tahlil etish qobiliyati yangilanadi;
- zamonaviy tibbiy jihozlarni ishlatish, texnik ishlov berish va tashkil etish vazifalari takomillashadi;
- hamshiralik ishini amalga oshirish va tashkil etishning ilg‘or shakllari va usullarini ishlab chiqish, ommalashtirish, tajriba almashish hamda boshqa kasbiy faoliyat turlariga moslashtirish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

3.DASTUR MAZMUNI

3.1.“Pediatriyda hamshiralik ishi” kursi o‘quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy mashg‘ulot	Amaliy mashg‘ulot		
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	32	16	16		
1.1	Modul.O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.	4	4	-		
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul: Infekcion nazorat	6	4	2		
1.4	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.5	Modul: Sog‘lom turmush asoslari, to‘g‘ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik	10	4	6		
2.0	Mutaxassislik fanlar moduli.	104	44	60		
2.1	Modul: Sog‘liqni saqlash tizimining amaldagi meyoriy hujjatlari. Sog‘lom va bemor bolalarda hamshiralik parvarishi	6	4	2		
2.2	Modul: Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni parvarishlash va ularni adaptatsiyasi, jismoniy, ruhiy rivojlanish monitoringi.	6	2	4		

2.3	Modul. Ko'krak sutining afzalliklari. 6 oydan katta bo'lgan bolalarni qo'shimcha ovqatlantirish. Nutritsiologiya haqida tushuncha.	6	2	4		
2.4	Modul: Shaxslar o'rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat	6	4	2		
2.5	Modul: Bolalarda turli kasalliklarda hamshiralik parvarishi.	44	18	26		
2.6	Modul: Bolalarda uchraydigan yuqumli kasalliklar профилактикаси ва hamshiralik ishi	18	6	12		
2.7	Modul:Tug'ma nuqsonlar va irsiy kasalliklarda hamshiralik parvarishi	6	2	4		
2.8	Modul:Favqulotda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tibbiy tez yordam ko'rsatish. Bolalarda shoshilinch xolatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish	12	6	6		
3.0	Tanlov fanlar moduli	4			4	
	Attestatsiya	4				4
	Jami:	144	60	76	4	4

“Peiatriyda hamshiralik ishi” kursi o‘quv modullarining mazmuni

1.1.Modul.O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining”Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilishga doir davlat dasturi to‘g‘risi”dagi hamda “Tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarining ahamiyati.Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdagi ustuvor vazifalar. “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4890-sonli shuningdek 2024 yil 5-sentabrdagi “Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 311-sonli Qarorlarining mazmun-mohiyati.

Davlat tibbiy sug'urtasi-sifatli tibbiy xizmat kafolati. Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy qilish bilan bog'liq islohotlar. Davlat tibbiy sug'urtasining huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari haqida. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tibbiy sug'urtasiga oid norma haqida.

1.2. Modul. Tibbiyotda raqamli texnologiyalar

Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, Bemor ma'lumotlarini boshqarish, tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo'llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish.

Internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, mobil tibbiyot ilovalari va axborot xavfsizligi asoslarini, AI asosida diagnostika, chatbotlar va virtual yordamchilardan foydalanishni bilishi kerak. "Tibbiyotda raqamli texnologiyalar" o'quv modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyotda raqamli texnologiyalar tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o'rni;
- hozirgi zamonda informatikaning o'rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish.

1.3. Modul. Infeksiyon nazorat.

Infeksiyon nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish sabablari, profilaktikasi. Sanitariya epidemiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish chora tadbirlarini o'tkazishda o'rta tibbiy hodim vazifalari. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar haqida tushuncha. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar profilaktikasini amalga oshirish chora tadbirlari, himoyalash tamoyillari. OIV/OITS haqida umumiy ma'lumot. OIV/OITS tarqalishini oldini olish choralari. Avariya holatlar yuzaga kelganda tibbiy hodim taktikasi. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.

1.4. Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.

Sterilizatsiya bo'limidagi yuritiladigan me'yoriy hujjatlar. Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Antiseptikaning mexanik, fizikaviy, kimyoviy, biologik turlari. Antiseptik moddalarning guruhlari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar. Zararsizlantirish bo'limlarida zamonaviy zararsizlantirish apparatlari, ular bilan ishlash. Zararsizlantirish usullari. Zararsizlantirish xonasi texnika xavfsizligi qoidalari. Dezinfeksiya vositalarini tayyorlashda xavfsizlik choralari va dezinfeksiya vositalari bilan zaharlanishda birinchi yordam ko'rsatish. Avtoklavlarni turlari, tuzilishi, ishlash tartibi. Avtoklav ko'rsatkichlarini ish jarayonida ahamiyati. Mehnatni muhofaza qilish ishlarini

tashkil etish. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika havfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

1.5. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik

Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Salomatlik tushunchasi. Salomatlik darajasi ko'rsatkichlari, salomatlik darajasi ko'rsatkichlarini aniqlash. Salomatlik indeksini baholash. Tibbiyot valeologiyasi. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

2.1. Modul: Sog'liqni saqlash tizimining amaldagi meyoriy hujjatlari. Sog'lom va bemor bolalarda hamshiralik parvarishi

Sog'liqni saqlash tizimining amaldagi meyoriy hujjatlari. "Onalik va bolalikni muhofaza qilish"ning qonunchilik asoslari, SSVning mutaxassislikka oid amaldagi buyruqlari. Ona va bola sog'lig'ini muhofaza qilish buyicha olib borilayotgan ishlarni samarasini oshirish. Bolalar bo'limlarida faoliyat olib borayotgan o'rta tibbiyot xodimlarining xuquq, vazifalari, tibbiyot deontologiyasi va majburiyatlari. Yangi tug'ulgan va ko'krak yoshidagi bolalarni parvarishlash xususiyatlari. Болаларда ҳаётий муҳим кўрсаткичларини аниқлаш ва кўрсаткичларини баҳо қараб болаларнинг ҳолатига баҳо бериш. Ota-ona va bola o'rtasida ishonchli bog'liqlik yo'qligi xavfini aniqlash.

2.2. Modul: Modul: Yangi tug'ilgan chaqaloqlarni parvarishlash va ularni adaptatsiyasi, jismoniy, ruhiy rivojlanish monitoringi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarni anatomo - fiziologik xususiyatlari. Chaqaloqlarning oy kuni yetib tug'ilganlik belgilari. Apgar shkalasi bo'yicha chaqaloq xolatini baholash. Issiqlik zanjiri. Chaqaloqni tana haroratini saqlash («kenguru» usuli, «terini-teriga» kontakti). Sog'lom tug'ilgan chaqaloqlarni parvarish qilish. Yangi tug'ilgan chaqaloq patologiyasi. Yangi tug'ilgan chaqaloq reanimatsiyasi. Asfiksiyada tug'ilgan chaqaloqlarga yordam ko'rsatish algoritmi. AVSD qadami. Milliy protokol asosida ish olib borish. Chaqaloqlar adaptatsiyasi. Bolalar organizmining yoshiga nisbatan o'zgarishi xususiyatlarini, bolaning yoshiga nisbatan jismoniy, ruhiy, ijtimoiy rivojlanish meyorlarini

2.3. Modul: Ko'krak sutining afzalliklari. 6 oydan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarni qo'shimcha ovqatlantirish. Nutritsiologiya haqida tushuncha.

Ko'krak sutining afzalliklari. Ko'krak suti bilan emizishdagi qiyinchiliklarni aniqlash. 6 oygacha bo'lgan bolani ko'krakka to'g'ri tutish usuli va ko'krak suti bilan emizish amaliyotini baholash. 6 oygacha bo'lgan bolalarni istisnosiz ko'krak suti bilan emizishning muammolari. Erkin emizish, afzalliklari va unga mone'liklar. Bir yoshgacha va bir yoshdan katta bolalarni ovqatlantirish, turlari. Bolalarni

yoshiga mos ravishda ovqatlanishini baholash. 6 oydan katta bo'lgan bolalarni qo'shimcha ovqatlantirish

Nutritsiologiyani bolalar salomatligiga ta'siri, vazifalari. Sog'lom va bemor bolani ovqatlantirishga tavsiyanomalar.

2.4. Modul: Shaxslar o'rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat.

Jamiyat va bemorning salomatligi yo'lida halol mehnat qilish, har qanday sharoitda ham tibbiy yordam ko'rsatish. Bemorga diqqat e'tibor va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish va o'zining barcha xatti-harakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioya qilish. Jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyati. Kasbning oliyjanob an'alarini saqlash. Zamonaviy tibbiyot amaliyotida sezilarli e'tibor tibbiyot xodimlarining kasbiy ko'nikmalariga, bemorlar bilan ularning gender va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot qilish qobiliyatiga qaratilmoqda. Genderning salomatlikka ta'siri. Genderga sezgir tibbiy maslahat va aloqa to'g'risida tushuncha. Ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilish. Jamoat mulki tushunchasi va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish. Hamjihatlik va kollegiallik tuyg'ulariga rioya qilish. Neytral va xavfsiz muhitni yaratish. Salbiy munosabat va fikrlardan qochish. Tibbiy maslahatni hurmat va e'tibor bilan boshlash. Faol tinglash va empatiya. Bemorning ehtiyojlarini baholash. Shaxsiy chegaralarni hurmat qilish. Tushunarli tildan foydalanish. Tibbiyot xodimining bemor bilan muloqot qilish qobiliyati. Muloqot ko'nikmalarining turlari va ularning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatning asosiy tuzilishi va ko'nikmalarining o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatni tartiblashtirish. Noverbal tildan foydalanish. O'zaro tushunishga erishish: bemorning holatini inobatga olish. Samarali muloqotning xususiyatlari

2.5. Modul: Bolalarda turli kasalliklarda hamshiralik yordamini ko'rsatish.

Chakaloqlik davri kasalliklarida hamshiralik parvarishi: aspiratsiya sindromi va asfiksiyaning oldini olish, tug'ruq jarohatlari, chaqaloqlarning gemolitik kasalligi, teri, kindik kasalliklari, chaqaloqlar sepsisi: ta'rifi, etiologiyasi, belgilari, davosi, hamshiralik parvarishi.

Go'dak va kichik yoshdagi bolalar (raxit, spazmofiliya, allergik diatez) kasalliklarida hamshiralik parvarishi. Bolalarda nafas olish, Yurak-qon tomir a'zolari, ovqat hazm qilish, qon va qon yaratish, endokrin tizimi, buyrak va siydik ajratish a'zolari kasalliklari etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinikasi, asosiy tekshiruv usullari va hamshiralik parvarishi.

2.6. Modul: Bolalarda uchraydigan yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi.

Havo-tomchi yuli bilan yuqadigan, toshma bilan kechadigan kasalliklari, ichak infeksiyasi, virusli hepatitlarda, sil infeksiyasi bilan kasallangan bolalarda klinik belgilarni erta aniqlash, differensial diagnostikasi.

Shoshilinch xabarnoma varaqasini yuritish. Bemor bola uchun kun tartibi, parhezini tashkil etish, davo choralari va profilaktikasi rejasini tuzish. Hamshiralik parvarishini olib borish. Universal - progressiv reja asosida profilaktik emlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni aniqlash va bartaraf qilish. Immunoprofilaktikaning mazmuni, maqsadi va turlari. Emlashning (vaksinatsiyaning) ahamiyati. Xavfsiz immunizatsiya uchun tavsiyalar. Bolaga yillik profilaktik emlash rejasini tuzish va

tibbiy hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish. Emlangan bolani kuzatib borish bo‘yicha onalar bilan suhbat rejasini tuzish.

2.7.Modul:Tug‘ma nuqsonlar va irsiy kasalliklarda hamshiralik ishi.

Tug‘ma nuqsonlarga va irsiy kasalliklarga olib keladigan omillarni o‘rganish. Daun kasalligi, fenilketonuriya va tug‘ma gipotireoz, moddalar almashinuvining irsiy buzilishi. Klinik belgilari, diagnostikaning ahamiyati, hamshiralik parvarishi. Tug‘ma nuqsonlar va irsiy kasalliklarni oldini olish bo‘yicha maslahat berish. Bolaning rivojlanishi uchun rag‘batlantiruvchi muhitni yaratish. Ota-onalarda depressiya aniqlanganda ko‘rsatiladigan yordam

2.8. Modul: Favqulotda holatlarda tez tibbiy yordam ko‘rsatish. Bola uchun havfsiz muhitni yaratish, jarohatlar va baxtsiz hodisalarning oldini olish.

Favqulodda vaziyatlar haqida asosiy tushuncha. Favqulodda vaziyatlar,ularning sabablari, turlari.Tibbiy saralash va triaj asoslari.Shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish bosqichlari va qoidalari. Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiyava birinchi yordam ko‘rsatish tamoyillari.Qon ketishni to‘xtatish usullari.Yengil va og‘ir kuyishlarda tibbiy yordam ko‘rsatish.Elektro jarohatlari, ochiq va yopiq jarohatlar, sinishlar,uzoq muddat ezilishda shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish.Hushdan ketish, kollaps, shok, koma haqida umumiy ma‘lumot. Hushdan ketish, kollaps holatlarida bemorga yordam ko‘rsatish.Shok holatlarida yordam ko‘rsatish algoritmi (gipovolemik, anafilaktik, travmatik). Komatoz holatda bemorni baholash va dastlabki yordam ko‘rsatish. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o‘lim belgilari. CPR – yurak-o‘pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun‘iy nafas berishni o‘tkazish algoritmi.

Bolalarda shoshilinch xolatlarda tez tibbiy yordam ko‘rsatish. Bolalarda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish. Bo‘g‘ilish strangulyatsiya, aspiratsiya sindromi va asfeksiyani oldini olish. Bo‘g‘ilish strangulyatsiya, aspiratsiya sindromi va asfeksiy, yqori xaroratda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.

4.DASTURNI AMALGA OSIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA‘MINOTI

4.1. O‘quv bazalari: Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi, Shifokorlar ko‘chasi-2 , 14-uy. Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o‘quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o‘quv bazalari.

4.2. Mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun zarur jihozlar ro‘yxati:

Modul bo‘yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o‘tiladigan o‘quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: slaydlar to‘plami bo‘lgan rrt ko‘rinishli ma‘ruzalar, SD diskda ko‘rgazma materiallar, ekran, videofilmlar.

Klinik amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash trening o‘kuv xonasi, mulyaj, fantom, nazorat savollarining elektron.Mavzular bo‘yicha turli jadvallar, tasviriy ko‘rgazma va qo‘llanmalar.

4.3.ADABIYOTLAR RUYXATI:

4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-xuquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T. : O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2016 yil 31 oktabrdagi "Aholini dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2647-sonli qarori;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 5- maydagi "O'zbekiston Respublikasida tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari tug'risida"gi 2956 -sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 20-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga 2017-2021 yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora –tadbirlari tug'risida"gi 3071-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 10-noyabrdagi "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlari tug'risida"gi 4887-sonli qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi "Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar tug'risida"gi 4891-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora- tadbirlari to'g'risida" gi 4890-sonli qarori.
8. 9.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2024 yil 5-sentabrdagi "Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi 311-sonli qarori.
- 10.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2024 yil 23-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 335-sonli qarori.
9. 11.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2024 yil 22-noyabrdagi "Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilish tizimini takomillashtirish chora tadbirlar to'g'risida"gi 402-sonli qarori.
10. 12.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan chiqarilgan buyruq va qarorlar

4.3.2. Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. A.A.Abduqodirov, A.G.Xayitov «Axborot texnologiyalari», Toshkent "O'qituvchi ta'minoti", Toshkent Mehnat -2022 yil.
2. A.Axmedov, N.Taylaqov "Informatika", Toshkent, O'zbekiston -2022y.
3. A.Sattorov "Informatika va axborot texnologiyalari" Toshkent, O'qituvchi-2023y
4. "Salomatlik Tizimi: Qo'llanma va Statistika 2024 O'zbekiston Sog'liqni Saqlash Vazirligi (2024).

5. Karimov, S. (2023). "O'zbekistonda telemeditsina: hozirgi holat va istiqbollari", *Tibbiyot Innovatsiyalari Jurnal* Toshkent Tibbiyot Akademiyasi
6. Rahimov, N. et al. (2023). "Analysis of EHR Implementation in Uzbek Hospitals". Central Asian Journal of Medicine. ISSN: 2181-2924
7. Tashkent Medical Academy (2024). "Digital Health Readiness Among Uzbek Healthcare Workers". Research White Paper.
8. Abdullaev, A. (2023). Raqamli Tibbiyot Asoslari. Toshkent: Yangi Nashr. ISBN: 978-9943-123-45-6
9. San QvaM № 0342/17 - 10 yanvar 2017 y.
10. "Mejdunarodniye mediko-sanitarniye pravila" (2005) vtoroye izdaniye VOZ.
11. H.B.Saparov "O'ta xavfli yuqumli kasalliklar" Toshkent- 2014.
12. "VICH – infeksiya". Pod redaksiye AN Ruz Daminova.T.A.Tashkent- 2010 .
13. Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha o'rta tibbiyot xodimlari uchun o'quv-dasturi qo'llanma. -2014y
14. Avtoklavlash va sterilizatsiyalashdaxavfsizligi buyicha o'rta tibbiyot xodimlari uchun o'quv uslubiy qullanma. Tashkent.2009.y
15. O'zbekiston Respublikasi sanitariya qoidalari, meyorlari va gigienik normativlari. O'zR SanQvaM № 0365 -19
16. Tibbiy anjom-asboblari va buyumlarni sterilizatsiya qilish markazlarini loyihalashtirish, qurish va ekspluatatsiya qilish sanitariya qoidalari va meyorlari.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 noyabrdagi "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 4887-sonli qarori.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 dekabrdagi "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab – quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4063-sonli qarori.
19. Irgashev.SH.B. Formirovaniye zdorovogo obraza jizni sanitarno prosvetitelnaya rabota. Jurnal "Organizatsiya i upravleniye zdravooxraneniyem" № 12.2020 g.
20. Irgashev. SH.B. "OIV/OITS muammolari va profilaktikasi" Tashkent 2008 g.
21. Irgashev. SH.B. Tursunxodjayeva. L.A. Pervichnaya profilaktika narkozavisimosti sredi uchashixsya obrazovatelnix shkoll, Uchebnoye – metodicheskoye posobiye dlya uchiteley, Ministerstvo zdravooxraneniya Respublike Uzbekistan. Tashkent 2011 g.
22. K.L.Shagulyamova."Pediatriya".Toshkent. "Ilm ziyo"-2015 g
23. "Birlamchi tizimda onalar va bolalar bilan ishlash bo'yicha patronaj hamshiralari ishini tashkil etish". 2020 y. (YUNISEF)
24. "Yuqumli kasalliklar hamshiralik ishi" – 2016 y. (YUNISEF)
25. Yunusjonova. Z.S. Mirzayeva S.A."Psixologik parvarish"Toshkent. 2014 y.
26. Shukurov. H.I. Qanoatov. S.Q. "Jamoadamshiralik ishi" Toshkent. 2013 y.
27. Zokirova. K.O'.To'xtamatova. D.O'. Mirzayeva. S.A "Hamshiralik ishi asoslari". 2013 y.

29. Tolkacheva. O.V. Zinkovskaya. I.V. "Osnovi sestriskogo dela" Toshkent. 2012 g.
30. M.F.Ziyayeva. Z.O.Rizayeva. "Bolalarda hamshiralik parvarishi" "Fan va texnologiya". 2012 y. Toshkent.
31. "Onalar hamda bolalarda xavf omillarini aniqlash bo'yicha
32. yuriqnomalar va beriladigan tavsiyalar". 2020 y. (YUNISEF)
33. "Birlamchi tizimda onalar va bolalar bilan ishlash bo'yicha patronaj hamshiralar ishini tashkil etish". 2020 y. (YUNISEF)
34. V.YE.Avakov. O.V. Churilova. A.M.Sharipov. "Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoj dovrachebnoy pomoshi." 2010 g.

4.3.3.Elektron ta'lim resurslari

www.minzdrav.uz

www.gov.uz

www.press-service.uz

www.parlament.gov.uz

- www.uza.uz

- www.cbu.uz

- www.lex.uz

www.ziyonet.uz

O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi – www.edu.uz

O'zR Sog'liqni saqlash vazirligi - www.minzdrav.uz

Medpoisk <http://www.medpoisk.ru/>

Russkiy meditsinskiy server <http://www.rusmedserv.com/>

Meditsinskiy katalog ROS-MEDIC <http://ros-medic.ru>

www.adti.uz

5.YAKUNIY ATTESTATSIYA

5.1. Yakuniy attestatsiyaga quyiladigan talablar

Yakuniy attestatsiya O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyruq 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi Nizom» asosida o'tkaziladi.